

NARSALARNING JOYLASHISHI

Asadullayeva Shaxinabonu Otabekovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

”Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” fakulteti

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Sinf: 1

Fan: Matematika

Mavzu: Narsalarning joylashishi.

Dars maqsadi: a) ta’limiy maqsad: 1.Narsalarning joylashishi ,ularni pastdan yuqoriga, yuqoridan pastga tomon joylashtirish haqida bilim berish.(Tayanch kompetensiya:Axborot bilan ishlash; Matematik amaliyot standartlari :Ma’lumotlar bilan ishlash(M5))

2.Mavzuga oid topshiriqlarni bajarishga o’rgatish(Tayanch kompetensiya:Axborot bilan ishlash; Matematik amaliyot standartlari :Ma’lumotlar bilan ishlash(M5))

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarni tabiatni sevish va mehnatsevarlik ruhida (Tayanch kompetensiya: Ijtimoiy-emosional va fuqarolik kompetensiyasi);

v) rivojlantiruvchi maqsad: tasavvur ko’nikmalarini rivojlantirish; o’rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va bilimlarni kundalik vaziyatlarda qo’llay olish (Tayanch kompetensiya: O’z-o’zini rivojlantirish kompetensiyasi).

Dars turi: Noan’anaviy.

Dars tipi: Yangi bilim beruvchi

. **Dars metodi:** Ko’rgazmali metod, savol-javob

. **Dars jihozi:** 1-sinf “Matematika” darsligi, mavzuga oid ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar kitobchasi, AKT ilovalari, audio va videoroliklar.

Darsning texnologik xaritasi.

T/r	Darsning bosqichlari	Darsda foydalaniladigan metodlar	vaqti
1.	Tashkiliy qism	Kirish suhbat. “Refleksiya” mashqlari	5 daqiqa
2.	<u>O’tilgan mavzuni takrorlash</u>	“Kim topqir” metodi	8 daqiqa
3.	Yangi mavzuga zamin hozirlash	“Tepada, pastda, chapda, o’ngda” metodi	5 daqiqa
4.	Yangi mavzu bayoni. Darslik bilan ishlash	“Kim chiroyli chizadi” metodi	17 daqiqa
5.	Yangi mavzuni mustahkamlash	“To’g’ri joylashtiring” metodi	5 daqiqa


6.	Baholash va rag‘batlantirish	Rag‘bat kartochkalari bilan baholash	3 daqiqa
7.	Uya vazifa berish	8-misol	2 daqiqa

Darsning borishi:

I. **Tashkiliy qism:** a) salomlashish; b) navbatchi axboroti; v) refleksiya mashqlari.

Darsni tashkil etish. Refleksiya bosqichi – o‘quvchilarning diqqatini darsga jalb etish, darsga tayyorgarlik ko‘rish.

II. **O‘tgan mavzuni mustahkamlash:** 1-topshiriq: “Kim topqir”metodi. O‘quvchilar rasm hamda unga o‘xshash shakllarni o‘zaro birlashtiradilar.



2. Yangi mavzu bayoni: Yangi mavzuni tushuntirish uchun dastlab ekranda darslikdagi ushbu topshiriqlar namoyish etiladi:Quyidagi rasmlardan 5ta farqni toping.





O‘qituvchi o‘quvchilarning mavzu mohiyatini oson tushunishi uchun faoliyatni ayni vaqtda bajarilib ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bilan mavzuni chuqurroq anglash uchun pisa orqali misollar ko‘riladi va savol javoblar o‘tkaziladi.–Bu nima? Kabi savollar beriladi bu topshiriqni o‘quvchilar bilan birgalikda og‘zaki tartibda bajaramiz.

3-misol yozma tartibda rangli qalamlar yordamida bajaramiz. Bunda chapdan birinchi munchoqni sariq ranga ,o ‘ngdan birinchi munchoqni havoranga ,qolganlarini yashil yoki qizil ran abo ‘yaymiz.



4-topshiriq qatorni davom ettiring bu topshiriq mustaqil holda o ‘quvchilar tomonidan bajariladi.

5- topshiriqda tog ‘ri tortburchaklarni xuddi mashina singari chizib ikkitasini o ‘ng tomonga qolganlarini chap tomonga joylashtiramiz va quyidagicha holga keladi.



Keyingi topshirig‘imiz mantiqiy topshiriqlarga yaqinroq bo ‘lib og ‘zaki tartibda bajaramiz bunda Nargiza ko‘zuga qarab turibdi xo ‘sh uning cho‘ntakchasini topamiz va uning qaysi tarafda yani o ‘ng tomondami chap tomondami shuni topamiz va uning cho‘ntakchasi aslida qaysi tarafda ekanligini bilib olamiz .

Demak shuni aytishimiz mumkinki Nargizaning cho‘ntakchasi aslida o‘ng tomonda ko‘zguga qaraganda esa chap tomonda ko‘rinadi.

III. Mustahkamlash: Dars davomida berib borilgan bilimlarni amalda sinab ko‘rish maqsadida o‘quvchilar bilan mavzu yuzasidan tezkor savol javob o‘tkaziladi, shu bilan birgalikda mantiqiy topshiriq bajariladi. Uch xil shakl berilgan uchburchak, kvadrat, doira ularni shunday ikki xil usulda joylashtirishimiz kerakki bitta shaklda kvadrat uchburchak ostida qoldirilishi, ikkinchi kompozitsiyada esa doira uchburchak ustida qoldirilgan holda bo‘yalishi lozim.



VI. O‘quvchilarni baholash. O‘quvchilarni darsdagi ishtirokiga qarab baholash.

VII. Uyga vazifa. 8-misol. O‘ng tomonda undan baland hayvon yo‘q. Unima? Chap tomonida tuya, o‘ng tomonida esa arslon u nima?. Uyga vazifa sifatida berilgan misollar yuzasidan umumiy tushunchalar beriladi.



VIII. Darsni yakunlash: Mavzu bo‘yicha yakun qilinib, matematik misollar yechishning hayotiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligiga o‘quvchilar e‘tibori qaratiladi. Darsning maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi.